

## SHUKUR XOLMIRZAYEVNING "O'N SAKKIZGA KIRMAGAN KIM BOR" QISSASI: INSONIY TUYG'ULAR FOJIASI VA HAYOT DARSLIGI

To'xteyeva Shaxzoda Omon qizi

Termiz davlat universiteti talabasi

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada XX asr o'zbek adabiyotining yirik vakili, psixologik tahlil mahorati va realizm tamoyillariga sodiqligi bilan tanilgan adib Shukur Xolmirzayevning "O'n sakkizga kirmagan kim bor" qissasi atroflicha tahlil etiladi. Tadqiqotda asarning sarlavhasidanoq boshlanuvchi ramziy ma'nolar, yoshlik davriga xos bo'lgan jo'shqinlik va ayni paytda tajribasizlik oqibatida kelib chiquvchi insoniy fojialar ko'lami yoritilgan. Maqolada markaziy obrazlar — Jamshidning andishali g'ururi, Umidaning hayotiy maqsadlardagi chalg'ishlari va Tilovning o'zgalar munosabatiga daxl qilishi kabi murakkab psixologik holatlar adibning "bezaksiz haqiqat" uslubi prizmasi orqali ochib beriladi. Shuningdek, asarning bugungi kun yoshlari ma'naviyati, xususan, muhabbatni qasos quroliga aylantirmaslik, shaxsiy kamolotga intilish va bironing baxtsizligi evaziga baxt qura olmaslik kabi ijtimoiy-axloqiy xulosalari falsafiy jihatdan asoslab berilgan. Maqola adabiyotshunoslar, talaba-yoshlar va Shukur Xolmirzayev ijodiga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

**KALIT SO'ZLAR:** Shukur Xolmirzayev, realizm, psixologik tahlil, yoshlik fojiasi, Jamshid, Umida, Tilov, g'urur va andisha, ma'naviy xato, o'zbek nasri, taqdir falsafasi, muhabbat etikasi, badiiy mahorat.

O'zbek adabiyotining so'nmas yulduzi, haqiqatgo'y adib Shukur Xolmirzayev o'z ijodi orqali kitobxonlarga shunday bir ma'naviy olamni in'om etdiki, unda har bir inson o'zining dardu quvonchini, yashirin o'y-xayollarini ko'rishi mumkin. Adibning asarlari hech qachon yaltiroq bo'yoqlar yoki sun'iy bezaklar bilan pardoatlanmagan; aksincha, ular muallif o'zi ko'rgan, his qilgan va shafqatsiz hayot sinovlaridan o'tkazgan haqiqatlar bilan yo'g'rilgan. Shukur Xolmirzayev qalban kitobxonlarni tushuna oladigan, ularning ma'naviy muammolariga asarlari orqali yechim topib, qalbiga yo'l topuvchi mahoratli psixolog edi. Uning "O'n sakkizga kirmagan kim bor" qissasi ham ana shunday hayotiy poydevorga qurilgan durdonadir. Asar tili shunchalik ravon va voqealar rivoji shunchalik shiddatliki, kitobxon qahramonlar taqdiriga qiziqib, asarni qanday o'qib tugatganini bilmay qoladi. Yakunida esa go'yo eng yaqin do'stini yo'qotgan insondek mahzunlik va ichki bir "bo'zlash"ni his qiladi. Buning

sababi shundaki, asar sahifalarida har birimizning yoshligimizga xos boʻlgan xatolar va hayotning oʻzgarmas, achchiq haqiqatlari yashiringan.

Shukur Xolmirzayev ushbu asar orqali nafaqat oʻsmirlarni, balki hayotning oq-qorasini tanigan katta yoshli insonlarni ham doimiy hushyorlikka chorlaydi.. Muallif sevgi kabi ilohiy va pok neʼmatni qasos yoki alam ilinjida badnom qilish naqadar mantiqsizlik ekanini uqtiradi. Afsuski, bugungi kunda ham koʻplab yoshlar oʻz yoqtirgan insonlaridan rad javobini olganda yoki ayriliqqa duch kelganda, buni dunyoning oxiridek qabul qilishadi. Alam va gʻazab tufayli oʻz hayotlarini qora qilishga, hatto oʻzgalar hayotiga daxl qilishga urinishadi. Vaholanki, insonni qadrlamagan yoki tushunmagan kimsa uchun eng munosib va eng ogʻir qasos — bu sizning chinakam baxtli boʻlishingiz, yuksak marralarni zabt etishingiz va maʼnan boyib borishingizdir. Hammasini taqdir izmiga topshirish va vaqt hukmiga ishonish orqali barchasiga asta-sekin, ammo mustahkam erishish mumkinligini yozuvchi asar qatlamlariga singdirib yuborgan.

Ayniqsa, asardagi Umida obrazi va uning ichki kechinmalari bugungi kun qizlari uchun katta saboq maktabidir. Umidaning hayotidagi eng katta xatosi — oʻz orzu va maqsadlarini, butun borligʻini faqatgina "kimga turmushga chiqaman?" degan tor va bemaʼni oʻy-xayollarga bogʻlab qoʻyganidir. Bu kabi fikrlash tarzi insonni oʻzini oʻzi baxtsiz qilishiga, shaxs sifatida shakllanishdan toʻxtashiga olib keladi. Qizlarimiz hayotda faqat oldinga intilishi, oʻqishi va tinimsiz izlanishi lozim. Shuni unutmashlik kerakki, chinakam qadrlaydigan va sizga munosib boʻlgan inson vaqti kelib oʻzi sizni topadi. Umida kabi hayotini faqat his-tuygʻular qurshovida, asossiz hadiklar bilan oʻtkazish — oʻz kelajagiga nisbatan xiyonatdir. Asardagi har bir parcha Umidaning aynan mana shu maqsadsizligi va hissiyotlarga qul boʻlgani sababli oʻz baxtini boy berganiga yaqqol dalil boʻla oladi.

Asarning markaziy qahramonlaridan biri boʻlgan Jamshid obrazi orqali esa yoshlikka xos boʻlgan andisha, gʻurur va tushunmovchilik qurboniga aylanish fojiasi mahorat bilan ochib berilgan. Jamshid — feʼli biroz ogʻir, andishali, ammo ichki dunyosi boy yigit. Uning Umidaga boʻlgan samimiy muhabbati har bir harakatida, hatto oʻzini tutishida ham sezilib turadi. Biroq Jamshidning oʻz tuygʻularini ochiq-oydin izhor eta olmasligi, andishasini gʻurur deb bilishi voqealar chigallashishiga sabab boʻldi. U oʻz sevgisini mardlarcha himoya qilish oʻrniga, ichki kechinmalari bilan yolgʻiz qoldi. Bu yerda adib oʻzbekona andishaning meʼyordan oshishi qanday koʻngilsizliklarga sabab boʻlishini koʻrsatib bergan. Jamshidning fojiasi — bu sukut fojiasidir.

Shuningdek, asarda birovning baxtsizligi evaziga hech qachon baxtli bo‘lib bo‘lmasligi g‘oyasi Tilov obrazi orqali mahorat bilan ochib berilgan. Tilov Jamshid va Umida o‘rtasidagi munosabatlarga uchinchi shaxs bo‘lib kirdi. To‘g‘ri, kimnidir yaxshi ko‘rish ayb emas, ammo ikki insonning o‘zaro ko‘ngli borligini, ularning har bir harakati va nigohidan bir-biriga bog‘liqligini sezib turib, ular orasiga suqulish — ma’naviy jinoyatdir. Tilovning bu harakati oxir-oqibat ikki insonning, balki uchovlonning ham baxtsizligiga sababchi bo‘lib qoldi. Jamshid va Umidaning bir-biriga bo‘lgan samimiy tuyg‘ularini payqash qiyin emas edi, biroq g‘urur, tushunmovchilik va Tilovning aralashuvi bu go‘zal rishtani uzib yubordi. Shukur Xolmirzayev ushbu o‘lmas asari bilan insonlarni o‘zgalar tuyg‘usiga hurmat bilan qarashga, har qanday vaziyatda ham insoniylikni saqlab qolishga o‘rgatadi.

Xolmirzayev realizmining kuchi uning detallarida ko‘rinadi. Asardagi har bir muloqot, har bir tabiat tasviri qahramonlarning ruhiy holati bilan chambarchas bog‘liq. Adib kitobxonni qahramonlarni hukm qilishga emas, balki ularning o‘rniga o‘zini qo‘yib ko‘rishga undaydi. Bu esa asarning tarbiyaviy ahamiyatini o‘n chandon oshiradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, "O‘n sakkizga kirmagan kim bor" shunchaki yoshlik qissasi emas, balki hayot darsligidir. Undagi har bir personaj, har bir voqea bizni xulosa chiqarishga, o‘z hayotimizga chetdan nazar tashlashga majbur qiladi. Adib bizga shuni uqtiradiki, baxt — bu faqat his-tuyg‘u emas, balki katta mas’uliyat va aql bilan bosiladigan qadamlar yig‘indisidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. **Xolmirzayev Sh.** O‘n sakkizga kirmagan kim bor (Qissalar). – Toshkent: „Sharq“ NMAK, 2008.
2. **Xolmirzayev Sh.** Saylanma. Uch jildlik. – Toshkent: „Sharq“, 2003-2005.
3. **Quronov D.** Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: „O‘zbekiston“, 2007.
4. **Rasulov A.** Badiiy tahlil mezonlari. – Toshkent: „Fan“, 2001.
5. **Sharafiddinov O.** Ijodni anglash baxti. – Toshkent: „Sharq“, 2004.
6. **Normatov U.** Nafosat gurunglari. – Toshkent: „Ma’naviyat“, 2010.